

BEHBUDIYNING DRAMASIDA ILSIZLIKNING FOJEASI

Durdona Tog'ayeva

JDPU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Nigora Kiryigitova

JDPU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Kitob o'qigan, o'zini ustida ishlagan odamda qanot bo'ladi. U befarq bo'lmaydi. Uning kuchi bilimida bo'ladi. Shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi. "Kattalar"ga xushomad qilmaydi. Uning bilimi bor, ilmi bor. Mana nima uchun kitob o'qinglar deymiz. Kitob o'qisangiz savol berishni bilasiz.

Shavkat Mirziyoyev

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Asrlar davomida ta'lim va tarbiya masalasi birinchi o'rinda turgan. Alisher Navoiy o'z qahramoni Farhodning ta'lim-tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor berganligi bejiz emas. Jadidlarimiz ham xalqimizni uyg'otish va manaviyatli qilish maqsadida harakatga keldilar. Hududlarda maktablar, gazetalar tashkil etdilar. Bu yo'lda yo'lda teatr ham yaxshi natija berishini anglagan holda, sahna asarlari ham yaratdilar. Turkiston jadidchilik namoyondalaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi ahamiyatlidir. "Padarkush"—o'zbek dramachiligining hamma yakdil e'tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotining boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar[1;165]. Imsizlik xalqni qaysi yo'lga olib borayotganligini Behbudi o'z asari orqali ko'rsatib bergan. Na dunyoviy, na diniy ta'lim olmagan o'g'il oila atalmish buyuk dargohning barbod bo'lishiga sabab bo'ladi. Aslida farzandini o'qitmagan ota buning bosh aybdor edi. U domla va ziyolining gaplariga bee'tibor bo'di. Bundan qariyb 100 yil avval yozilgan bu asardagi Domullaning xalqni ma'rifatga da'vat etishi, uning taqdiridan qayg'urish bilan bog'liq motiv hali ham o'z qimmatini yo'qotmagan[2;42]. Behbudi qahromonlari tilidan xalqni ko'zini ochishga da'vat etdi. Xalqni bilimning ahamiyatini anglab yetmas ekan mustaqillikka erisha olmas ekanligini Behbudi ham boshqa jadidlar ham anglab yetgan edilar. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiya masalasida tinimsiz tashviqot ishlari olib bordilar. Behbudiyning ma'rifatparvarlik go'yalari bugun mamlakatimizda olib borilayotgan ma'rifiy va madaniy jarayon bilan uyg'un bo'lib qolmoqda[2;42]. O'qimagan bolaning ahvoli har bir davr uchun ahamiyatlidir.

Boy va domla suhbatlashib o'tirganida Toshmurod salom va aliksiz kirib keladi. Ota, tomoshaga boraman, pul bering[3;40]. Uning ta'lim ko'rmaganligini mana shu jarayon va so'zlaridan bilishimiz mumkin. Chunki tarbiyali inson eng avvalo o'zidan kattalarga salom berishi kerak edi. Domla esa bunga e'tibor bergan holda boydan o'g'lining qaysi maktabda ta'lim olishini so'raydi. O'sha davrda ikki yo'nalishda maktablar tashkil qilingan va ularning biri eski maktab, biri jadidlar tashkil qilgan maktab edi. Domla Toshmurodning hech qanday ta'lim ko'rmaganligini aytadi. O'sha davrda yaratilgan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari qahramoni Otabekning ta'im va tarbiya ko'rgan, ilg'or fikrli bo'lganligi barcha kitobxoniga ayondir. Otabek savdo ishlari bilan dunyo kezgan va har bir vazuyat uchun o'z qarashiga ega bo'lgan. U boshqa xalqlar hayotini tahlil qilgan holda Turkistonning ahvoriga achinish bilan qaraydi. Vaholanki Yusufbek Xoji "Padarkush" dramasidagi boy kabi

davlatmand hatto undanda badavlat edi, lekin ular farzand tarbiyasida bir xil munosabatda bo'lmaga. Domla ilmning inson hayotida muhim ahamiyat kasb etishini aytganda boy uning so'zlarini o'zing fikrlashi orqali rad etadi. Bir qator hadislarda ilmning ibodatdan ustun ekanligi ko'rsatib o'tilgan ekan. Lekin boy o'g'liga diniy ilm olishi uchun ham sharoit yaratmagan edi. Boyning domlaga javobi ham uning ma'nafiyati past ekanligini, pul va davlat hamma narsaga qodirligiga ishonishini ko'rishimiz mumkin. Boy: "Mani xayoling'a dunyoning sababi, izzati-boylik. Oxiratga bo'lsa, Xudoning qilgan taqdiri bo'lur. Chunonchi, biz ko'ramizki, odamlar boyni mulldan ziyoda izzat qiladurlar. Xususan, mana, banklar ko'paydi. Katta boylar chilen bo'lib, har kim chilnlarni izzat qilur, hatto, ishi tushaturlar chilen molini qimmat olur, azbaski, chilen iltifotiga olmagan odamlarlarga banklar pul bermaydurki, so'ngra muomiladorlar sinib, mayda-mayda bo'lur bildingizmi?"[3;41] Ushbu javobga nisbatan domla asosli dalillar keltiradi. Domlaning javobi, albatta, to'g'ri edi. Eshitganimizki, Iskandar dunyodan ko'z yumganida ikki qo'lini tobutdan chiqarib qo'yishini va odamlar umri davomida to'plagan mol-mulking biron qismini nargi dunyoga olib keta olmaganligini ko'rishini istagan edi. Dunyoda ilm – fanga hissa qo'shgan insonlar doimo tirik va insonlar ardog'ida bo'lgandir. Buyuk bobokolonlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'beklarning hayot yo'li va ilm yo'lidagi olib borgan ishlari orqali barhayot bo'lib yashab kelmoqda. Mol-mulkning o'tkanchi ekanligini boyga tushuntirishga urunmasin o'z maqsadiga erisha olmadi. XX asr adabiyotida Abdulla Qahhorning "Adabiyot muallimi" hikoyasida ham ilmsiz inson qalamga olingan. "Uyqu istagi" muallifi Chexovning tug'ilgan yilini bilmaydigan va qizning savoliga javob bera olmagan adabiyot muallimidir. Qahhor o'z qahromomiga bejizga "nafis adabiyot muallimi" ta'rif bermagan. Domla chiqib ketgandan so'ng ziyoli ham boyga ilmning ahamiyatini tushuntirishga urinadi. Boy uning gaplariga ham e'tiborsiz bo'ladi. Ziyolining ushbu so'zlarida ham o'qish va o'qitish nima uchun kerakligi tushunib olish mumkin. "Hozir yangi va boshqa bir zamondir. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqni boyligi, yeri va asbobi kundan kun qo'ldan ketgandek, Axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar, hatto, dini ham zaif bo'lur. Buning uchun biz musulmonlarni o'qitmog'ga sa'y qilmog'imiz zarurdir, vaholanki, dini sharifimiz har nav naflik ilm o'qimoqni beshikdan mozorgacha bizlarga farz qilgandir. Bu hukm – hukmi shariatdir."[3;43] Ziyolining ham domulloning ham maslahatini olmagan boy o'z boshiga o'zi yetadi. Dramada Behbudiy ikki qahromoni tilidan xalqni uyg'otmoqchi bo'lgandir. Xalqni g'avlat uyqusidan uyg'otish oson bo'lmadi. Mamlakatimizda Tursinboylarga to'lib ketgan edi. Ularning qismati bilan qiziqish, qayg'urish juda ozchilikni qamrab olgan edi. O'qimagan bolaning qismati o'ziga emas atrofidagi insonlarga, qolaversa, yurt kelajagiga ham yaxshi ta'sir qilmasligini jadidlarimiz anglab ketishgan. "Padarkush" drammasidagi voqealar yuqoridagi fikrlarga dalildir. Tursunboy sheriklari bilan kayf-safo qilib, mast holda o'z uyiga o'g'irlikka tushadi. Otasi o'marish vaqtida sherigi Tangruqul boyni pichoqlab o'ldiradi. Shu vaqtda domulla mana shunday deydi: "onajon, sizga sabrdan boshqa chora yo'q. Bu badbaxlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, bema'nilik va tarbiyasizlikdir. Uningizni nodonlik buzdi. O'g'lingizni beilmlik Sibirga yuboradi. Joningizdan aziz farzandingizni tarbiyasizlik balosi sizdan umri ajratadur. Bolangizni yomon rafiqlar yo'ldan chiqardilarki, qurboni jaholat bo'ldingiz."[3;48] Bugungi kunda ham qurboni jaholatga tushib qolayotganlar bordir. Ular boy kabi fikrlaydilar. Bu yo'ning oxiri yaxshilik bilan tugamasligini anglab yetish kerak.

"Har zamonning ilmi, hikmati va parvarishi boshqadur. Modomiki, har bola, ya'ni har kimning zamoni, otasi zamonidan boshqa bo'lsa va har otag'a o'z farzandini kelar zamon uchun va kelar zamong'a muvofiq suvratda tarbiya va ta'lim etmog'i lozim bo'lsa, biz na uchun kelar zamon emas, balki hozirgi va bugungi zamon va soatimizdagi ilm va fanlarni bolalarimizga o'rgatmaymiz."[2;140] Behbudiyning ushbu fikrlari ham chuqur ahamiyat kasb etadi. Xalqimizni ilmi qilish yo'lida jadidlarimizning qilgan ishlarini davom ettirib,

yangiliklar qilinmoqda. Barchaning ta'lim olishi uchun bepul ta'lim joriy etilgan. O'qimishli insonlar yurt kelajagining ravnaqida o'z hissasini qo'sha oladi. Behbudiy va jadidlarimiz bugungi kunimizning poydevorini qurib berganlar. Yurtning mustaqilligini mustahkamlash yo'lida ilmning o'rni beqiyosdir. Bugungi kunda keng miqyosda olib borilayotgan "Kitobxonlik" tanlovi ham bejizga emas. Yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish ularni yot unsurlardan saqlashda muhimdir. Yoshlar ilm o'rganish bilan band ekan Tursunboyning holiga tushib qolmaydilar. Ota-onalarimiz ham farzandining ta'lim-tarbiyasi bilan e'tiborli bo'lishi kerak. Bolalari bilan suhbatlar olib borishi, eng avvalo, ularga o'zlari namuna bo'lishlari lozim. "Qush uyasida go'rganini qiladi"- deyilgani bejizga emas. Boy o'g'liga o'rnak bo'lganida, kitob bilan do'st tutintirganida jaholatga sabab bo'masdi. "Padarkush"dagi voqealar hayotimizda uchramasligi uchun yoshlarni bilimli qilishim kerak. Ularning eng yaqin do'sti, sirdoshi kitob bo'lsin. Bekorchilik, telefonga mukkasidan ketish, onlayn o'yinlarga berilish bugungi zamon muammolaridandir. Ilmsizlikning ko'rinishi, sababi davrlar osha o'zgarib boradi, lekin uning oqibati doimo qurboni jaholat bilan yakun topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Begali Qosimov va boshqalar Milliy uyg'onish davri adabiyoti Toshkent Manaviyat 2004-yil 165-295 b
2. Naim Karimov Mahmudxo'ja Behbudiy Toshkent 2010-yil 42,42,140-79 b
3. Mahmudxo'ja Behbudiy Padarkush www.ziyouz.com kutubxonasi 40,41,43,48 b
4. daryo.uz sayti